



**PSIXOLOGIK XIZMATNING  
DOLZARB MUAMMOLARI  
VA ULARNI YECHISH  
YO‘LLARI**

**O‘ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
QUROLLI  
KUCHLARI  
AKADEMIYASI**

**HARBIY  
PSIXOLOGIYA  
VA  
PEDAGOGIKA  
KAFEDRASI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI**

**HARBIY PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA KAFEDRASI**



**PSIXOLOGIK XIZMATNING DOLZARB MUAMMOLARI  
VA ULARNI YECHISH YO‘LLARI**

**Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari  
to‘plami**

**2023-yil 25-yanvar**

Toshkent 2023

Psixologik xizmatning dolzarb muammolari va ularni yechish yo‘llari ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, - Toshkent: “QK Akademiyasi”, 2023. - 321 b.

Mas’ul muharrir:

N.A.Mirashirova, M.K.Ashurmatov.

Tahrir hay’at a’zolari:

R.T. Normatov, SH.T.Ravshanov, F.I. Haydarov, SH.A.Mirabdullayeva, M.A.Abdijanova.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 sentyabrdagi “Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-371-son qaroriga asosan, har qanday og‘ir va murakkab vaziyatda ona Vatanni, milliy mustaqillikni va mamlakat hududiy yaxlitligini ishonchli himoya qilish, yurtning har bir qarich yerini, o‘z xalqi, ota-onasi va farzandlarini ko‘z qorachig‘idek asrash, kerak bo‘lsa shu yo‘lda o‘z jonini fido qilishga tayyor bo‘lgan harbiy xizmatchini kamol toptirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Harbiy psixologiya va pedagogika kafedrasidan **“Psixologik xizmatning dolzarb muammolari va ularni yechish yo‘llari”** mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazildi.

Respublika ilmiy-amaliy anjumani **asosiy maqsadi** - harbiy xizmatchilarda milliy g‘urur va ma’naviy fazilatlarga tayanadigan barqaror axloqiy-ruhiy holatni ta’minlash, murakkab vaziyatlarga nisbatan bardoshlilikni, yuksak jangovar ruhni tarbiyalash hamda harbiy xizmat faoliyatida psixologik xizmatni tashkil etish va olib borishda harbiy psixologlar va tegishli mutaxassislar bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashdan iboratdir.

Anjuman materiallari to‘plamidan oliy ta’lim muassasalari talabalari, magistrilar, doktorantlar, kursant va tinglovchilar hamda professor-o‘qituvchilar foydalanishi mumkin.

To‘plam O‘R QK Akademiyasi Harbiy psixologiya va pedagogika kafedrasining 2023-yil 25-yanvarda o‘tkazilgan fan-uslubiy hay’ati yig‘ilishida muhokamadan o‘tkazilib (bayonnoma № 4) chop etishga tavsiya qilingan.

*Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga hamda berilgan fikr-muloxazalarga mualliflar o‘zlari mas’uldirlar.*

© O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2023

## SHAXSNING PSIXOLOGIK BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA HIMOYA MEXANIZMLARINING AHAMIYATI

*Nazarov A.M.*

*Buxoro davlat universiteti, psixologiya va sotsiologiya kafedrası  
mudiri, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*

Dunyoning barcha ilmiy tadqiqot markazlarida shaxsning shakllanishi va barqaror rivojlanish qonuniyatlari va ularning mexanizmlari, psixologik yondashuvlar negizida, shaxsning jismoniy, psixologik jihatdan kamolatga erishgan, biologik va ijtimoiy shartlangan xislatlar egasi, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqaruvchi, bilishga intiluvchi, faoliyat, xulq, muomala sub'ekti sifatida insonlarning psixologik barqarorligiga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Shaxsning psixologik barqarorligi va uni himoya qilish muammosi hamisha insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Shaxsning har jihatdan ijtimoiy-psixologik taraqqiyoti, shaxs sifatidagi faolligi va o'zini rivojlantira borishi juda ko'plab omillarga bog'liqdir.

Shu bois mamlakatimizda yoshlarning jismoniy-ruhiy imkoniyatlari rivojlantirishgan alohida e'tibor berilmoqda. Shuni, alohida ta'kidlash joizki, shaxs o'zining psixologik imkoniyatlari, yutuqlari, kamchiliklari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lsa, bu ularning turmush tarzida uchraydigan har qanday yuzgan keladigan muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etish, o'ziga ishonch, o'zidagi imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Mazkur muammoni o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi psixologik himoya metodologiyasiga taalluqli ayrim umumiy jixatlarni ijtimoiy-psixologik nuqtai nazaridan tadqiq qilishimizga to'g'ri keladi. Olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxsning psixologik himoyasi uchun muxim bo'lgan nazariy-ilmiy ayrim jixatlari o'rganilgan. Ruhiy va jismoniy tarbiya shaxsni shakllantirish tizimining uzviy qismidir. O'sib kelayotgan yosh avlodning ruhiy va jismoniy sog'ligi haqida g'amxo'rlik, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sport bilan muntazam, mustaqil shug'ullanish ko'nikmalarini singdirish tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Mutaxassislar tomonidan olib borilgan kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, aksariyat shaxslarda o'z diqqatini bir joyga qaratish, o'zini nazorat qilish, qiyin vaziyatlardan chiqish uchun irodaviy zo'r berish, xotirjamlik, o'z hislarini va o'zini boshqarishni bilishmaydi. Har bir shaxsni faoliyatdagi muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan muhofazalanish (himoyalaniş) mexanizmi sifatida har bir shaxs uchun xarakterli bo'lgan individual uslub mezonlarini ishlab chiqish va undan psixologik xizmat jarayonida qo'llash muhim hisoblanadi.

Psixologik himoyaning muhim komponenti hisoblangan shaxs individual farqlanish muammosi rus psixologi K.K.Platonov tadqiqotlarida ilmiy jihatdan o'rganilgan. K.K.Platonovning psixologik himoya o'z-o'zini adekvat baholashi va o'zini rivojlantirishga asoslangan shart-sharoitlarni yaratish bilan kamol toptirish muqarrarligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Shaxslarda o'z-o'zini himoya qilish qoidalari:

1. Har qanday faoliyat uchun psixologik himoya juda muhim hisoblanadi. Shaxsni himoya qiluvchi psixologik mexanizm muvaffaqiyatsizlik haqidagi fikrlar, musobaqa jarayonida kutilmagan vaziyatlarda faollashtirilgan insonning "Men"ligini namoyon etiladi.

2. Psixologik himoyaning individual xususiyatlarining namoyon bo'lishi shaxsning jinsiga, yoshiga ijtimoiy-psixologik fazilatlari va ularning kognitiv jarayonlariga bog'liq tarzda shakllanadi.

3. Shakllanish darajasi, barqarorlik, moslashuvchanlik, o'zgaruvchanlik va psixologik himoyaning samaradorligi ularning faoliyat turiga bog'liq va muvaffaqiyatga intilish yoki raqobatda muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik kerak.

Psixologik himoya tushunchasi ilmiy jihatdan isbotlanganligi haqiqat, uni birinchi bo'lib, mashhur psixolog Z.Freyd tomonidan qo'llanilgan. Ushbu tushuncha 1894 yilda psixoanalitik nazariya vakillari tomonidan turli yo'nalishlarda ilmiy jihatdan o'rganilgan. Shaxsdagi psixologik himoya qilish odatdagi, kunlik ishlaydigan mexanizmdir. So'nggi yillarda bu psixologik hodisa, insonning fenomenal xususiyati sifatida namoyon bo'lmoqda. Shaxsdagi hissiyotlar "Men" ning yaxlitligini himoya qilish zarurligini anglashni talab qiladi. Bu odatda o'z-o'zini hurmatni qilishda namoyon bo'ladi.

Shaxsdagi psixologik himoya muammosiga doir ilmiy izlanishlarni amerikalik psixolog R.Plutchik tomonidan eng samarali olib borgan. R.Plutchikning psixologik muhofaza konsepsiyasi alohida e'tiborga loyiq hisoblanadi. Shaxsning psixologik himoya imkoniyatlarini o'rganish psixologiyaning eng zamonaviy tadqiqotlar sirasiga kirishini ta'kidlaydi. R.Plutchik fikriga ko'ra, hissiyotning hosil bo'lishiga qarab, psixologik himoya mexanizmlaridan qarab kattalar ham, hattoki chaqaloqlar foydalanishi mumkin. R.Plutchikning psixologik muhofaza mexanizmining nazariy modelini G.Kellerman va X.Konte bilan hamkorlikda ishlab chiqqan. R.Plutchik tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida shaxsning psixologik himoya mexanizmlarini diagnostika qilish so'rovnomasi yaratildi. R.Plutchik tomonidan yaratilgan testda 8 ta asosiy psixologik himoya mexanizmlarini joylashtirdi. R.Plutchik, psixologik himoya mexanizmiga - ob'ektiv vaziyatni inson tomonidan real tarzda idrok etilishi natijasida vujudga keluvchi ziddiyatli, tashvishli holatlarni hissiy-emotsional tarzda yumshatish, ruhiy zo'riqishni pasaytirish sifatida qaraydi. Bu o'rinda ikkita bir-biriga qarama-qarshi fikr maydonga keladi.

Psixologik himoyasi birinchi holatda shaxsni o'z-o'zini rivojlantirishiga, o'z-o'zini qayta qurishiga monelik ko'rsatadi, sababki, "Men" obrazini xavfdan saqlash uchun inson xotirjamlikka beriladi, tashqi shart-sharoitga, vaziyatga moslashishga undaydi; ikkinchi holatda esa shaxs ichki ruhiy va tashqi to'siqlarni, ziddiyatlarni yengishga, uni bartaraf etishga chog'lanadi. Bu o'rinda "Men obrazi"ni rivojlantirish maqsadida kuchli emotsional zo'riqish holatini boshdan kechirishga rozi bo'ladi, u o'z-o'zi ustida ishlaydi, muammoning yechimini izlaydi. Mazkur metod shaxsda ustunlik qiladigan psixologik muhofaza mexanizmlarini o'rganadi.

Bizningcha psixologik himoya mexanizmlarining ayrim birlarining shaxsda barqaror shakllanganligi ulardagi himoyani shakllanishiga zamin hozirlashi mumkin. Masalan "siqib chiqarish", "regressiya", "o'rmini almashtirish", "inkor etish", "proeksiya", "kompensatsiya", "intelektualizatsiya", "tezkor obraz" kabi psixologik himoya mexanizmlarining yuqori yoki past bo'lishi shaxslardada muhofaza mexanizm

shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishi mumkin. Natijalarni qayta ishlashda 8 ta ego himoya mexanizmlari 8 ta shkalani hosil qilib, ularning har biriga alohida ta'kidlar to'g'ri keladi.

Ma'lum bo'lishicha, insonlarning 98 foizi psixologik himoya shakllanishiga ishonishadi va bu psixologik himoya rivojlanishi shaxsning keyingi faoliyati uchun muhim deb bilishadi. Olib borilayotgan ilmiy izlanishlarimiz natijasida shunga ishonch hosil qildikki, xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlili ko'rsatdiki, shaxs faoliyatida psixologik himoya ijtimoiy qonuniyat jihatdan fenomenal hodisa hisoblanadi. Psixologik himoya fenomeni aqliy jarayonining shunday shakli, uning ko'p bosqichli va tabiatan ko'p funksional, o'ziga xos tarkibiy-dinamikaga ega bo'lgan xususiyatdir. Turli omillarga qarab, psixologik himoya shaxsning hayotida turli funksiyalarni bajarishi mumkin. Psixologik himoya shaxsni noqulayliklardan xalos qiladi. Psixologik himoyaning rivojlanishi muammolarini hal qilish uchun yetarli va konstruktiv usulni topishning iloji bo'lmaganda yuzaga keladigan jarayondir. Zamonaviy tadqiqotlarda shaxsni psixologik himoyalash ruhiy zo'riqish sharoitida olingan stresslardan chiqishning samarali usullaridan biridir. Bugungi sharoitda shaxs faoliyati sog'lom odam uchun jiddiy jismoniy va ruhiy-emotsional stressga ega bo'lgan ekstremal sharoitlarda tananing moslashish qobiliyatini rivojlantirish uchun imkoniyatdir.

Zamonaviy psixoterapiya va psixologiyaning barcha asosiy yo'nalishlarida psixologik himoya mexanizmlari muhim va asosiy holat hisoblanadi. Psixologik himoya mexanizmlari moslashadi va ongdagi salbiy xotiralar va hissiyotlardan himoya qilishga yo'naltirilish mumkin, shaxsdagi muammolarning qayta ishlanishiga to'sqinlik yoki ichki psixologik qarshilik yaratishi mumkin. Psixologik himoya mexanizmlari yuzaga kelgan bezovtalikni kamaytirishga qaratilgan va "Men" shaxsning yaxlitligi va moslashuvchanligini saqlashga harakat qiladigan o'ziga xos ongsiz jarayonlardir. Psixologik himoya mexanizmlari to'g'risidagi zamonaviy g'oyalarning markazida hissiyotlar xavfi omillari, individual psixologik xususiyatlar va qadriyatlar qiymatining o'zgarishi bilan tavsiflanadigan qayta baholashlardir.

Olimlarning tadqiqotlarida psixologik himoyani "Men" konsepsiyasiga asosan psixo-travmatik ta'sirni susaytirish uchun munosabatlarning parchalanuvchi tarkibiy qismlarining - kognitiv, hissiy, xulq-atvorning ahamiyatini himoyaviy ravishda o'zgartirishga qaratilgan adaptiv shaxsiyatning reaksiyalari tizimi sifatida tushunadilar. Noqulaylik, qo'rquv, g'azab, uyat kabi salbiy his-tuyg'ular odamni psixologik noqulaylikni yengillashtirish va o'zini munosib darajada ushlab turish uchun vaziyatning, munosabatlarning, o'zini obro'sining ahamiyatini qayta baholash jarayonlariga moslashtiradi. Ushbu jarayon, qoida tariqasida, psixikaning ongsiz faoliyatida bir qator psixologik mexanizmlar yordamida sodir bo'ladi. Barqarorlik, qattqlik, noto'g'ri fikrlash stereotiplaridan tez-tez foydalanish, his-tuyg'ular va xatti-harakatlar bunday himoya mexanizmlarini patologik holga keltiradi. Patologik himoya mexanizmlarining keng tarqalgan xususiyati yoki shaxsning sharmandalik, tajovuzkorlik yoki bezovtalikning salbiy yoki og'riqli tajribasini keltirib chiqaradigan vaziyatni yoki muammoni samarali hal qilishga qaratilgan faoliyatdan bosh tortishdir.

Shunday qilib, himoya mexanizmlari, shuningdek, shaxslar dunyoqarashning ma'lum bir pozitsiyasini va bu dunyoda bo'lish usulini aks ettiradigan noyob hayotiy tajribalarini qanday tuzishlarining namunasidir. Psixologik himoyaning eng keng tarqalgan mexanizmlari bir necha usullarda namoyish bo'lishi mumkin. Psixologik

himoya usullaridan biri rad etilgan yoki tashlab yuborilgan narsalarni qayta ishlashning yetishmasligini birlashtiradigan psixologik himoyadan iborat. Unga yaqin bo'lgan va mavjud bo'lgan ma'lumotlar o'rtasidagi og'riqli tafovutni avtomatik idrok etmaslik reaksiyalaridan iborat bo'lgan sezgir himoya qilish usullari ko'rib chiqiladi. Psixologik himoya fikrlar, his-tuyg'ular yoki xatti-harakatlarning mazmunini o'zgartirish (buzish) bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Psixologik himoya usullaridan yana biri salbiy hissiy stressni tushirish mexanizmlari. Bular spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar va giyohvand moddalarga psixologik qaramlikning asosini tashkil etadigan ta'sirchan xatti-harakatlar faollashtiriladigan harakatni amalga oshirish mexanizmini o'z ichiga oladi. Psixologik himoyaning usullaridan - ruhiy himoyaning manipulyatsion mexanizmlari, masalan, tashvishlanishni kamaytirish va real hayotning talablaridan qochish uchun kasallikka o'tish, xayol surish yoki kasallikka o'tish kiradi.

Psixologik himoya bu – shaxsdagi umumiy ijtimoiy-psixologik usullar tizimi hisolanadi. Shaxsning hayotida kutilmagan holatlarda aqliy jihatdan tartibga solishi yoki o'zini o'zi boshqarish usullaridan iborat. Shaxs o'zini himoya qilishi uchun psixologik himoya zarur hisoblanadi. Chunki, tur xil kutilmagan (muvaffaqiyatsizlik, mag'lubiyat, shikastlanish, stress, nizoli va inqirozli) holatlarning zararli ta'siridan shaxslarni saqlaydi. Olib borilgan tadqiqotlarning tahlil shuni ko'rsatdiki, shaxslarning psixologik himoyasi nafaqat shaxsning psixologik sifati, shu bilan birga u miqdoriy va funksional xususiyatlar ekaligi aniqlandi. Tabiiyki, erkak shaxslarning jismoniy kuchi va psixologik himoya ayollarga qaraganda kuchli hisoblanadi. Psixologik himoyalangan shaxs boshqalar ta'siriga tushib qolishini va faoliyatini mustaqil rejalashtirish imkonini beradi. yetarlicha psixologik va jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxs o'zini boshqarishi, faoliyatini tartibga solib turishi va stressga tushush vaziyatlarini kamaytiradi.

Shaxsning faolligini cheklaydigan omillarni o'z vaqtida aniqlash, ushbu omillarni bartaraf etish va tuzatish usullaridan to'g'ri foydalanish o'z sohasida yuqori natijalarga erishishga va sog'lig'ini yaxshilashga yordam beradi. Shaxsning har doim individual xususiyatlarni, intellektual qayta ishlash darajasini va asab barqarorliging tipologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Bu esa, psixologik himoya jarayonining bugungi kundagi ayrim dolzarb jixatlari, muammolari va uning yechimlari haqida uylashga, fikr mulohaza yuritishga va kelajakdagi muhim vazifalarini belgilab olishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-sonli Farmoni.
2. Ксенофонтова Е.Г. Исследование локализации контроля личности – новая версия методики «Уровень субъективного контроля» // Психол. журнал. – 1999. – № 2.
3. Островский А.Н. Теория и практика педагогической профилактики правонарушений школьников-подростков. Автореф. дис... кан. психол. Наук. Санкт-Петербург, 2006.
4. Психодиагностика функциональных состояний человека / под ред. А.Б.Леонова. – М., 1994.

## MUNDARIJA

1. Kirish so'zi .....	5
2. I-SHO'BA: PSIXOLOG KASBINI EGALLASHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI .....	6
3. Shayakubov B.A. PSIXOLOG KADRLAR HUQUQ VA MAJBURIYATLARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK JIHLTLARI.....	6
4. Abudazimov S.U. HARBIY SPORTCHILARDA IRODAVIY SIFATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI.....	9
5. Akramov M.R. PSIXIK TARAQQIYOTGA TABIIY-IJTIMOIIY MUHIT TA'SIRINING PSIXOLOGIK JIHLTLARI.....	12
6. Aminova D.O. TA'LIM MUASSASALARI IMIJINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI .....	15
7. Bafayev M.M. TOLERANTLIK FENOMENINING PSIXOLOGIK TAVSIFI .....	19
8. Baqoyeva Z.R. O'SMIRLARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING IJTIMOIIY -PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
9. Galdieva M.D. BO'LAJAK PEDAGOG-PSIXOLOGLARNING MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK MASALALARI.....	25
10. Gayibnazarov O.X. HARBIY PSIXOLOGIYANING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI .....	27
11. Irgashev D.R. OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIGA O'QUVCHI YOSHLARNI JALB QILISHDA REKRUTMENT FAOLIYATI.....	32
12. Jo'rayeva S.N. IMIJ IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA.....	34
13. Karimov B.B., Madraimov X.K. YOSH KURASHCHILARNI SARALASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MASALALARI .....	38
14. Kuvandikova G.G., Mustafayeva I.N. PSIXOLOG KASBINI EGALLASHDA ISTE'DODNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHLTLARI .....	39
15. Shomurotova N.N. HARBIY XIZMATCHILARDAGI PSIXOLOGIK STRESSNI YUZAGA KELTIRUVCHI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK SABABLAR .....	41
16. Matkarimova N. IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	46
17. Л.А. Нигматулина, У.Н.Тураева ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СТРУКТУРЫ ЧЕРТ ХАРАКТЕРА В ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ НАУКЕ .....	50
18. Maxmudova Z.M. QO'RIQLASH XIZMATI PSIXOLOGI KASBIY KOMPETENTLIGI .....	52
19. Mamatqobilov T. D., Madraximova G.S., Azizov SH.A. TA'LIM JARAYONIDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYANING PSIXOLOGIK JIHLTLARI .....	55
20. Xolturayev A.P. O'SMIR O'QUVCHILAR O'QUV FAOLIYATIDA NATIJAGA ERISHISHNING METODOLOGIK TADQIQI .....	59
21. Yo'licheva Z. N. PSIXIKANING REFLEKTORLIK XUSUSIYATI .....	61
22. Одилова Н. Г ПОНЯТИЕ НРАВСТВЕННОЕ САМОСОЗНАНИЕ ЛИЧНОСТИ И ЕГО СУЩНОСТЬ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ НАУКЕ .....	65
23. Рахимова Г.С. ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРИОБРЕТЕНИЯ ПРОФЕССИИ ПСИХОЛОГА.....	69



24. Сабиров Г.Г., Лиханов В.О. ПСИХОЛОГИЯ И ЕЕ РОЛЬ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ .....	71
25. Erkinov I.E. STRESSNI O'RGANISH TARIXI VA UNING TA'RIFI .....	79
26. Farfiyeva K.A. BO'LAJAK PSIXOLOG KASBINI EGALLASHDA SHAXS ILMIY, IJODIY TAFAKKURINI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI VOSITALAR.....	81
27. Xaydarov F.I. ETNIK VA IJTIMOYIY MUNOSABATLARGA DOIR QADIMGI DUNYO MUTAFAKKIRLARINING PSIXOLOGIK QARASHLARI .....	84
28. Xudaynazarov T. PSIXOLOGIYADA KASB TANLASH MUAMMOLARI.....	87
29. Yuldasheva N.Sh. TALABALIK DAVRIDA IRODAVIY REGULYATSIYANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI NAZARIY O'RGANILISHI .....	92
30. II-SHO'BA: HARBIY XIZMATCHILAR SHAXSINI O'RGANISHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI.....	95
31. Bafaev M.M., Botirxonova U. B. HARBIY XIZMATCHILAR SHAXSINI O'RGANISHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI.....	95
32. Д.А.Махмудова ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С ТРЕВОЖНОСТЬЮ У ЖЕРТВ ТОРГОВЛИ ЛЮДЬМИ .....	98
33. Miryusupov M.M. HARBIY XIZMATCHI RAHBAR KADRLAR KASBIY FAOLIYATINING PSIXOLOGIK OMILLARI.....	100
34. Nazarov A.M. SHAXSNING PSIXOLOGIK BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA HIMOYA MEKANIZMLARINING AHAMIYATI.....	104
35. Saribayeva U.S. HARBIY XIZMATCHILAR SHAXSIGA XOS GENDER XUSUSIYATLARINI TARKIB TOPTIRISH MUAMMOLARI .....	108
36. Туляганова Д.У. РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В ИЗУЧЕНИИ ЛИЧНОСТИ У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ.....	111
37. III-SHO'BA: HARBIY QISM VA BO'LINMALARDAGI MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING ROLI.....	115
38. Abdurahimova D.A. HARBIY TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.....	115
39. A'zamov J.X. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING HARBIY MOJAROLARDAGI PSIXOLOGIK ROLI VA AHAMIYATI .....	119
40. Arzikulov D.N. HARBIY XIZMATCHI VA XODIMLARNING KASBIY - SHAXSIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AXLOQIY PSIXOLOGIK JIHATLARI .....	123
41. Jabborov X.X. JAMIYATDA IJTIMOYIY-MA'NAVIY, PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR STRATEGIYASI .....	126
42. Karimova M.H. HARBIY QISMDA ADOLAT MEZONINI TA'MINLASH, OSHKORALIK VA PSIXOLOG XIZMATINI O'RNI .....	130
43. Hamroqulova D.F. KASBIY SHAKLLANISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'ZIGA XOS IJTIMOYIY PSIXOLOGIK OMILLARI.....	133
44. Urazov S.S., Karimov B.B. SOG'LOM TURMUSH TARZINI HARBIY XIZMATCHILAR ONGIGA SINGDIRISHDA YONDASHUVLAR .....	135
45. IV-SHO'BA: HARBIY QISM VA BO'LINMALARDA PSIXOLOGIK HIZMATNI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI.....	147